

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
Vazirligi**

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası

“Huquqshunoslik” fanidan

R E F E R A T

Mavzu: Davlat va huquq haqida asosiy tushunchalar

Bajardi: 11-14 guruhi talabasi Qobulov M.

Tekshirdi: U.S. Bozorov

Toshkent-2015

Reja:

- 1. Davlat va huquq asoslarida, davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar.**
- 2. Davlat tushunchasi, uning belgilari, shakllari, funktsiyalari.**
- 3. Huquqning tushunchasi va mohiyati, printsiplari va funktsiyalari.**
- 4. Huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik.**

1.Davlat va huquq asoslarida davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar.

Davlat va huquq asoslari fani nazariy va metodologik fandır. Bu fan davlat va huquqning umumiy qonuniyatlarini nazariy jihatdan umumlashtiradi, yurisprudentsiyaning asosiy tushunchalarini va metodlarini ishlab chiqadi. Bu fan barcha ijtimoiy va yuridik fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat va huquq masalasini faqat yuridik fanlar o'zganibgina qolmasdan, balki barcha ijtimoiy fanlar ham o'rganadi. Chunki kishilar, faoliyatining turli sohalari huquq bilan tartibga solinadi.

Har qanday fan o'z predmeti va uni egallash uslubiga ega bo'lganidek, davlat va huquq nazariyasining ham o'z predmeti mavjud.

Bu fanning predmeti davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va harakatda bo'lishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida ijtimoiy munosabatlarni boshqarish yo'liga o'tganidan buyon odamlarning Shu tarzda tashkil topgan uyushmasining mazmun-mohiyati haqidagi muammolar yuzaga kelgan. Davlat va uning mohiyatiga, mazmuniga bo'lgan qarashlar har bir tarixiy davrda jamiyat manfaatlari va ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'zgarib borgan.

U o'zining shakllanishi va rivojlanishida o'zoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida davlat etarlicha rivojlanmagan siyosiy hodisa bo'lgan. Bunday davlat, zo'rlik va majburlashga asoslangan.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, huquqshunoslar, iqtisodchilar va tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqning kelib chiqishida o'ndan ortiq nazariyalar mavjuddir. Shularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Teologik nazariya – bunda davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar davlat va hokimiyat xudoniki degan qoidani ilgari suradilar. Masalan: Abdulkodir Uda yozishicha, shariat uch nuqtai nazardan qonundan farqlanadi:

Birinchidan, qonun inson tafakkuri va ijodining maxsuli bo'lsa, shariat yaratuvchi tomonidan yuborilgan. Qonun har doim o'zgarib tursa, shariat o'zgarish va zavoldan o'zoqdir.

Ikkinchidan, qonun jamiyat tomonidan uning hayotini tartibga solish va ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan bir qator qoidalar sifatida jamiyat o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Lekin sha'riy qonunlar umumiy mohiyatga ega bo'lgani uchun o'zgarishni qabul qilmaydi.

Uchinchidan, qonun jamiyat tomonidan uning urf-odatlarini, rasmi-rusumlari va tarixiga muvofiq yaratiladi. Shuning uchun qonun jamiyatdan keyin yuzaga kelib, uning taraqqiyotiga bog'liq bo'ladi.

Qonunni jamiyat yaratadi, jamiyatni qonun emas. Ammo Islom qonunchiligi jamiyat maxsuli bo'lmay, jamiyatni shariat yaratadi, ya'ni jamiyat shariatning mahsulidir. Udaning ushbu xulosasi keng munozarali va bahsli masala hisoblanadi¹.

¹ Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, xanafi mazhabi va o'rta Osiyo faqxlari. T., Toshkent Islom Universiteti, 2002, 28 b.

Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalib hozirgi kunda ham teologik nazariya Islom davlatlarida qo'llaniladi.

2. Patriarhal nazariya. Aflotun va Arastu ularning asoschilari hisoblanadi. Aflotun o'zining "Davlat" deb atalgan mashhur asarida oila negizida unib chiquvchi barkamol adolatli davlatni tasvirlaydi. Unda podshoh hokimiyati o'z oila a'zolari ustidan ota hokimiyatini qiyos qilinadi.

Patriarhal nazariya g'oyalari XU11 asrda yashagan ingliz olimi Fil'merning "Patriarx" asarida o'z rivojini topdi. Mazkur asarida u hokimiyatning Xudodan olinishi, keyin uning to'ng'ich o'g'il-patriarxga topshirilishi, Shundan so'ng esa o'z avlodlari-podshohlarga o'tib borishini isbotlaydi.

Bundan tashqari bu nazariyani ingliz sotsiologi, tarixchisi va yuristi Genri Men (1822-1888) tomonidan yaratilgan. Bu nazariyaning Rossiyadagi tarafdori rus olimi N.Mixaylovskiydir. U urug'doshlik aloqalarining yo'q bo'lishiga va davlatning paydo bo'lishiga va davlatning paydo bo'lishiga urug'doshlik aloqalarining davomi bo'lgan milliy aloqalarning rivojlanishi sabab bo'lgan deydi. Uning ta'biri bo'yicha dastavval oila vujudga kelgan, oila o'sib qabilaga aylangan, qabila esa o'sib borib davlatga aylangan. Patriarhal nazariyada «Ota rozi – xudo rozi» zaylida ish tutadi.

Patriarhal nazariya qanchalik o'ziga rmi etmasin, baribir, davlatning Shunday yo'l bilan vujudga kelganligini tasdiqlovchi biron-bir dalil yo'q. Oila rolini oshirib yuborish, unga universal xususiyat bag'ishlash patriarhal nazariyaning asosiy kamchiliklari edi.

3. Shartnoma nazariyasi. Bu nazariya XVII-XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Gugo Grotsiy va Spinoza, Angliyada – Lokk va Gobbs, Frantsiyada – Jan-Jak Russo, Rossiyada Radishchev rivojlantirgan. Shartnoma nazariyasiga ko'ra, davlat – ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi.

Russoning kitobi aynan Shunda: "Ijtimoiy shartnoma" deb atalgan. «Shartnoma nazariyasi»ga muvofiq davlat hokimiyati kishilarning o'zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganligining ifodasidir.

Davlat – o'zaro keliShuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana Shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini davlatga beradilar.

4. Zo'ravonlik (bosqinchilik) nazariyasi. Ushbu nazariya XIX asrda dunyoga kelgan. L. Gumplovich, K. Kautskiy, E. Dyuring va boshqalar uning asosiy namoyondalari edilar. Ular davlatning vujudga kelishini faqat harbiy-siyosiy omillar – bir qabila tomonidan boshqasining bosib olinishini bilan bog'lar edilar. Siyosiy hokimiyat va davlatning kelib chiqishi sabablari asoslarini Shu tarzda ular iqtisodiy munosabatlarda emas, balki bir xil qabilalarning boshqalarini bosib olishi, zo'ravonligi, asoratga solishida ko'rgan edilar. Ushbu nazariyani tahlil etilarkan, quyidagilarni ta'kidlash joiz deb hisoblaymiz. Davlatning paydo bo'lishi uchun jamiyatning Shu davlat mahkamasini boqish imkonini beradigan taraqqiyot darajasi talab etiladi.

5. Psixologiya nazariyasi. Bunda davlat kelib chiqishida, insonlar o'z tabiatiga, biologik instinkt xususiyatlariga ko'ra boshqarilish, itoat etishga intilar emishlar. Ulardagi bu ehtiyoj faqat davlat mavjud bo'lgan takdirdagina qondirilarmish.

Taniqli rus olimi L.I. Petrajitskiy o'z qarashlarida go'yo inson psixikasiga xos bo'lgan "atoqli shaxslar"ga itoat etish, bo'ysinishga moyillikdan kelib chiqqandi. Bu nazariya tarafdorlari va asoschilari Z.Freyd, E. Dyurkgeym hisoblanadilar.

6. Irrigatsiya nazariyasi XIX asrda paydo bo'lgan. Nemis sotsiologi K.A. Vitgofel' uning muallifi edi. U o'zining "SHarq despotizmi" asarida davlatning kelib chiqishini sharqiy dehqonchilik viloyatlari (Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Hitoy va h.k) da qudratli sug'orish shaxobchalari qurish va saqlash zarurati negizida asoslab berilgandi.

Shuning uchun ham ko'pchilik siyosatshunoslari bu nazariyani hisobga olmay uning o'rniga davlat kelib chiqishining ekologik omillari haqida gapiradilar.

7. Sinfy nazariya namoyandalarining (K. Marks, F. Engel's, V.I. Lenin) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar – ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama-qarshi sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. V.I. Lenin «Davlat va revolyutsiya» asarida davlatni sinflarni keltirish organi emas, balki sinfiy hukmronlik organi, bir sinfning boshqa sinfni bostirish quroli, bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlikni ta'minlash mashinasi deb hisoblangan. Bu nazariyaning natijasida sinfiy hukmronlik o'rnatish maqsadida repretsiyalar bo'lib ziyolilarni yo'q qilgan.

Shunday qilib, davlatning kelib chiqish nazariyasining ko'pligi oqibatida ham o'zgacha davlatning tub mohiyatini birdek tushunishga erishilgani yo'q.

"Biz barpo etayotgan davlat,-deb hisoblaydi mamlakatimizning birinchi Prezidenti, eng avvalo, umumjahon tsivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa alqalar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim.

Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlar SHarq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlangandi. Bu o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana Shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad YAssaviy, Bahavuddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Al-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim"- I.Karimov "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" 7-8-betlar.

1.2. Davlat tushunchasi, uning belgilari, shakllari, funktsiyalari.

Davlatchilik tarixida uni qanday tushunish lozimligini aniqlashni Aflotun va Arastudan boshlash maqsadga muvofiqdir.Ular tasavvuriga ko'ra, davlat siyosiy aloqalar vositasida muayyan bir tarzda birlashgan va o'zaro bog'liq odamlar jamoasidir."Insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan

hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat"² Shu aloqalar asosini tashkil etadi, deb hisoblardilar.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi muayyan darajaga etib, ijtimoiy ne'matlarni teng taqsimlashning avvalgi tizimi yashay olmay qolgan hamda jamiyatning bundan keyingi rivoji uchun SHarq jamiyatida bo'lganidek, siyosiy sohada yoxud Ovrupadagidek siyosiy va iqtisodiy sohada boshqaruv bilan Shug'ullanadigan elitar qatlamni ajratish zaruratga aylanganda davlat dunyoga keldi. Bu-jamiyatni tabaqalashishga olib keldi va Shunda dastlab (ibtidoiy jamoa tuzumi) jamiyatning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan hokimiyat siysiy mazmun kasb etdi, ya'ni u eng avvalo imtiyozli ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatiga xizmat qila boshladi. Binobarin, davlatning paydo bo'lishi hamisha ommaviy hokimiyatning mazmunini o'zgartirib, siyosiy hokimiyatga aylanishi bilan bog'liq.

Davlatning mohiyatini tuShunishda 3 asosiy nazariy yondoShuv mavjud:

- 1) ijtimoiy – bunda umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi;
- 2) sinfiy – bunda davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli;
- 3) siyosiy – huquqiy – bunda davlat jamiyatning va davlat o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning mohiyatida uchala yondoShuvda ham muayyan asos bor. Lekin, bir nazariy qarashni, ikkinchisidan ustun qo'yilganda yangliShuv (hukmronlik) bo'ladi.

«Davlat-muayyan xududni ishg'ol etgan va yagona hokimiyatga uyushgan xalqdir; davlat–insonning yashash qoidasi shakli, kishilar o'rtasidagi psixologik aloqa; davlat absal'yut ruxning mujassami.» (Gegel').³

Davlat jamiyatga, mamlakatga va xalqqa aloqador. U jamiyatdan, xalqdan tashqari yashamaydi. Davlatga ta'rif berishda uning turlari va shaklini e'tiborga olish lozim. Davlat bir necha ming yillardan beri rivojlanib, o'zgarib keladi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «har bir davlat – betakror ijtimoiy xodisadir. U har kaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining xosilasidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir». O'zbekiston uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ruyobga chiqqishiga ko'maklashadi.

Davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan bir qator o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlatning belgilari haqida turli talqinlar mavjud. F.Engel's o'zining «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining xududiy bo'linishi, ommaviy hokimiyat hamda soliqlar tizimining tashkil etilishini ko'rsatib o'tgandi Shuningdek, G.F.SHershenevich ham Shunga o'xshash uch belgi:

A) odamlarning birlaShuvi;

B) ular ustidan hukmronlik qiluvchi hokimiyat;

² Aristotel' Politika. 2-tom.(S.A.Jebelev tarjimasi.)

³ Boboev X.B, Odilkoriev X.T. «Davlat va huquq nazariyasi» darslik T-2000 y. 168 bet.

V) Shu hokimiyat ta'siri doirasidagi «xudud.»ni sanab o'tgan.

Hozirgi kunda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

1. Davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqa olishi;
2. O'ziga xos ommaviy hokimiyat – davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi;
3. Aholining xududlar bo'yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-xududiy birliklarda yashashi).
4. Davlat-suveren hokimiyatning yagona sohibiligi;
5. Davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettiruvchi qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qila olishi;
6. Davlat-qonuniylik va huquq tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar organi va boshqalar)ga ega bo'lgan yagona tashkilotligi;
7. Faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, xududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la olishi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan birgalikda olingan davlat belgilarining jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning alohida o'rni va etakchi rolini to'la izohlaydi. Bunda albatta har bir tarixiy davrda, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham ichki mazmuni, ham tashqi ko'rinishi bilan farq qilishini hisobga olish zarur.

Davlat tipologiyasi- davlatning mohiyatan o'ziga hos xususiyatlarini ajratishda yoki biror tipga mansubligini belgilashda foydalanadigan ta'limot, bilimlar tizimidir.

Ma'lumki, hozirga zamon davlatlarining quyidagi turlari mavjud:

1. Totalitar davlat-bunda “davlat – hamma narsa, inson esa-hech narsa” degan g'oya hukmronlik qiladi. Barcha hokimiyat hukmron elita qo'lida bo'lib, boshqalar davlatni boshqarishdan chetlatiladi.

2. Avtoritar davlat-bunda haqiqiy davlat elita qo'lida bo'ladi, shaxsning manfaatlari davlat manfaatlariga qurbon qilinadi. Siyosiy sohada ijoza etilganidan tashqari, barcha narsa taqiqlanadi.

3. Liberal davlat-bunda jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolarning huquq va erkinliklari rasman tengligi amal qiladi, fuqarolarning davlat ishlarida rasman qatnashuvlariga yo'l qo'yiladi.

Taqiqlanmagan narsadan boshqasi ijojat etilishi mumkinligi printsipiga amal qilinganday bo'ladi, biroq davlat tuzimi va ijtimoiy tuzimni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

4. Demokratik davlat-bunda fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishda qatnashishi huquqlarini ta'minlaydi, Shunday ishtirokka yordam beradi. Shaxs huquq va erkinliklarining doirasi keng bo'lib, ularni amalga oshirish ham ta'minlanadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunda bevosita taqiqlanmagan harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

1. Boshqaruv shakli – muayyan davlatda hokimiyatni uyutirish usullarining majmuidir. Bu ta’rifni yanada aniqlashtirsak, u oliy davlat hokimiyatini tashkil etish, ayni paytda davlatning oliy va markaziy idoralari, mazkur idoralar tarkibi, vakolatlari, paydo bo’lish tartibi, Shuningdek, ularda xalqning ishtirok etish darajasi, mazkur idoralar vakolatlarining muddatini nazarda tutadi. Insoniyatga davlat boshqaruvining azaldan ma’lum bo’lgan:

a) Respublika–lotincha so’zdan olingan bo’lib, (jamo’i shi) shaklida davlat hokimiyatini aholii muayyan muddatga saylab kuyadigan idoralar amalga oshiradi. Yangi davrda respublikaning parlamentar va prezidentlik turlari paydo bo’lgan.

b) Monarxiya – yunonchadan olingan bo’lib, (monos-bir, arxe-hokimiyat), «yakkahokimlik»; «yakkaxukumronlik»⁴ kabi ma’nolarni anglatadi.

Davlat shakli sifatida monarxiya bir qataor belgilariga ega:

1.monarx davlatni shaxsiylashtiradi;

2.monarx tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig’idir;

3.monarx xalq vakili, millat otasi, ya’ni fuqarolarning boshlarini qovushtirib, davlatga birlashtiradigan shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Monarxiya – cheklangan, ya’ni konstitutsiyaviy (dualistik va parlament) monarxiya va cheklanmagan (mutloq) monarxiya bo’lishi mumkin. Kadimgi YUnon faylasufi Arastuning fikricha, «oliy hokimiyat yakka shaxs tomonidan amalga oshirilganda monarxiya, cheklangan shaxslar guruhi tomonidan amalga oshirilganda respublika, barcha xalq tomonidan amalga oshirilganda demokratiya bo’ladi».

Konstitutsiyaviy monarxiya dalatlari hozirgi kunda deyarli uchramaydi, o’tmishda Prussiya, Avstriya, Italiya, Ruminiya davlatlarini misol qilish mumkin.

Parlamentar monarxiyaga (hozirgi Angliya, Belgiya, Norvegiya, SHvetsiya) mamlakatlarini ko’rsatish mumkin, chunki bu davlatlarda qirol (qirolicha) shohlik hukm suradi.

Boshqaruvning respublika shakli-bunda (jamo’i shi) davlat hokimiyatini aholi muayyan muddatga saylab qo’yadigan idoralar amalga oshiradi.

Afina davlatida (eramizgacha U-1U asrlar) demokratik respublika mavjud bo’lgan.

Sparta (eramizgacha U-1U asrlar) va Rim davlatlari (eramizgacha U-11 asrlar) aristokratik respublikalar bo’lgan.

O’zbekiston-suveren demokratik respublika hisoblanadi. Respublikaning parlamentar va prezidentlik turlari mavjuddir. Parlamentar respublikaning o’ziga xos xususiyati hokimiyat pog’onalari kelishmovchiliklarning mavjud bo’lmasligidir. Prezidentlik respublikasida saylangan davlat boshli0i ayni paytda xukumat boshlig’i hisoblanadi.

2.Tuzilish shakli: Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turidir. Davlat tuzilishi Shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Unga uch narsa ta’sir etadi:

1) muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy maqsadlar;

2) davlatdagi millatlarning soni va o’zaro munosabatlari;

3) davlat xududining katta kichikligi.

Davlat tuzilishi-davlatning ma’muriy-xududiy tuzilishi, uning bo’laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlari bilan o’zaro aloqalarining xususiyatlaridan iborat.

⁴ Saidov A. Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. T... Adolat .. 2001 y 154-bet.

Milliy davlat tuzilishi-davlatning tuzilishi, uning ma'muriy –xududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlaridan iborat.

Davlat tuzilishi:

a) oddiy – unitar; (frantsuzcha – unitaire-yagona, degani)davlat oddiy va yaxlit davlatdir. Markaziy hokimiyat mahalliy idoralari ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo'linadi.

Shunday qilib, unitar davlat deganda ma'muriy-xududiy qismlar(viloyatlar, tumanlar, grafiklar, gubernalar)ga bo'lingan, yagona tizimdagi hokimiyat va boshqaruv organlariga, Konstitutsiyaga, fuqarolikka, muayyan hududga, davlat chegarasiga va o'z qonunchiligiga ega bo'lgan davlat tuShuniladi.

b) murakkab – federativ (lotincha-feodus-ittifiq degani) davlat bo'lib, uning sub'ektlari davlat mustaqilligiga ega bo'ladi. Federatsiyalarning ikki turi ittifoq va avtonomiya mavjud.

Federativ davlatlar o'zlarining qonun chiqaruvchi organlariga, o'z hukumatiga va sud organlariga ega bo'lgan bir necha davlatlardan tarkib topgan davlatdir.

v) Konfederativ-esa davlatning bir qator zaif ittifoqi, u muayyan maqsadlar-mudofaa uchun, umumiy xo'jalik muammolarini hal qilish va hokozolar uchun tuziladi.

Konfederativ-davlatlarning muayyan ittifoqi bo'lib, iqtisodiy, siyosiy, harbiy maqsadlar uchun shartnoma va bitim asosida tuziladi.

Milliy davlat tuzilishi ma'lum printsiplar asosida amalga oshiriladi:

-millatlarning suverenligi va teng huquqliligi;

-millat va elatlarning erkin, ozod rivojlanishi;

-baynalminallik, millatlarning hamkorligi, do'stligini ta'minlash.

Bu printsiplar har bir milliy davlat tuzilishiga asos bo'lishi kerak.

3.Siyosiy idora usuli: Siyosiy rejim tushunchasini keng ma'noda talkin qilganda, jamiyatning umuman siyosiy hayoti va siyosiy tizimi xodisalari siyosiy rejimga taallukliligini bildiradi.

Siyosiy rejimni tor ma'noda tuShunish esa uni faqat davlat hayoti va davlat bilan cheklab kuyadi. Siyosiy rejimni bu ma'noda tuShunish davlat shaklining boshqa ikki elementi-boshqarish shakli va davlat tuzilishi bilan uzviy bohliqdir.

Siyosiy rejim quyidagicha:

a) demokratik;

b) gayridemokratik bo'lishi mumkin.

Davlat funktsiyalari- davlatning muayyan umuminsoniy va sinfiy mohiyati hamda ijtimoiy maqomidan kelib chiqadigan maqsadlarga erishish uchun, uning oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga oid faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

Davlat funktsiyalari:

a) faoliyat sohalari bo'yicha (tashqi va ichki);

b) amal qilish davomiyligi bo'yicha (doimiy va muvaqqat);
v) ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (umumiy va alohida);
g) amalga oshirishning huquqiy shakllari bo'yicha (huquq ijodkorligi, boshqaruv, sudlov) kabilardan iborat bo'ladi.

Davlat funktsiyalarining asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

-funktsiyalar davlatning mohiyati va ijtimoiy maqomi bilan bevosita bog'liq.

-ular o'zgaruvchan tabiatga ega, davlatning shakllanishi, mustahkamlanishi va rivojlantirilishiga yo'naltirilgan.

Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuch davlat mexanizmidir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganligini ko'rsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir. Mexanizm davlatning doimiy amal qilishi, faoliyatining ifodachisidir.

Davlat mexanizmi – davlat xokmiyatini amalga oshiradigan, jamiyatga davlat rahbarligini ta'minlovchi davlat tashkilotlari tizimidir.

Yuqoridagi ta'rif davlat mexanizmiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Yaqin o'tmishda davlatning vazifasi beistisno uyushgan zo'ravonlikdan iborat deb qoralanar edi, lekin uni xech kimning umumfarovonlikni ta'minlash mexanizmi sifatida xayoliga kelmas edi.

1. Davlat mexanizmi boshqaruv bilan maxsus Shug'ullanuvchi ishlardan iborat;
2. Davlat mexanizmi idoralar va muassasalarning murakkab tizimidan iborat;
3. Davlat Mahkamasining barcha bug'inlari faoliyati tashkiliy va moliyaviy vositalar bilan majburiy ta'sir yo'li bilan ham ta'minlanadi;
4. Davlat mexanizmi o'z fuqarolarining qonuniy manfaatlarini va huquqlarini ishonchli tarzda kafolatlash va muhofaza qilishga da'vat etilgan.

Davlat mexanizmining tuzilishi va uning faoliyati ob'ektiv tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, jamiyatni davlat yo'li bilan boshqarishning eng yuksak ob'ektivligini ta'minlaydi. Eng muhim tamoyillardan biri hokimiyatning bo'linishi tamoyilidir (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati).

Davlat Mahkamasi (apparati) – davlat mexanizmining bir qismi bo'lib, davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari majmuidan iborat.

Davlat mexanizmi davlat Mahkamasidan tashqari davlat muassasalari va davlat korxonalarini ham o'z ichiga oladi.

Davlat Mahkamasi umumiy shaklda organlarning quyidagi ko'rinishlari tarzida namoyon bo'lishi mumkin:

1. Qonun chiqaruvchi xokmiyat organlari.
2. Ijro etuvchi hokimiyat organlari.
3. Sud hokimiyati organlari.
4. Davlatning maxsus organlari.

Davlat apparatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1). U tegishli xodimlarning majburiy ijrosiga oid huquqiy hujjatlarni chiqara oladi.

2). Ushbu hujjatlarni bajarishni ta'minlash uchun ishontirish, majbur etish, tarbiyalash, ragbatlantirish kabi tadbirlarni qo'llay oladi.

3). Ularni joriy etish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Davlat idorasi-davlat apparatining tarkibiy bo'g'ini, nisbatan mustaqil qismidir. Davlat idoralari xilma-xildir. Ularni turli mezonlarga asoslanib bir qancha turlarga bo'lish mumkin:

1).paydo bo'lishning manbaiga ko'ra-birlamchi va ikqilamchi idoralar;

2).xududiy faoliyatining doirasiga ko'ra-respublika, viloyat, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari;

3).vakolatlarning tabiatiga ko'ra-umumiy vakolat idoralari, maxsus vakolat idoralari.

4).hokimiyatni amalga oshirish tartibiga ko'ra –kollegial va yakka tartibdagi idoralar.

Faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllariga ko'ra davlat idoralari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi va farmoyish beruvchi idoralariga bo'linadi. Bu esa davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish va kat'iy va barqarorligini, jamiyatda qonunchilik va huquq tartibotni, huquqiy davlat printsiplariga ergashishni ta'minlaydi.

Davlat apparati quyidagi belgilari bilan davlatning boshqa tashkilotlaridan ajralib turadi:

-davlat apparati boshqaruv bilan Shug'ullanuvchi aloxida fuqarolar guruhi.

-davlat apparati davlat funktsiyalarini bajarishga vakolatli bo'lgan o'zaro bo'ysinish yoki kelishish asosida bog'langan davlat organlari va muassasalari tizimidir.

-davlat apparati xalq irodasini amalga oshirish, o'z vazifasini bajarishi uchun zarur vositalar va majburlash qurollariga ega organlardir.

Davlat apparatining shakllanishiga, uning faoliyatiga Shu jamiyat tarixiy taraqqiyotining xususiyati, iqtisodiy tuzumi, ijtimoiy muxiti va milliy an'analar ta'sir ko'rsatadi. Har bir jamiyatda davlat apparati davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etiladi va Shu davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari ham mavjud. Davlatning oliy vakillik organlari qonun chiqaruvchi hokimiyat funktsiyasini bajaradi. Davlat hokimiyatining mahalliy organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillik harakteriga ega bo'ladi.

3.Huquqning tushunchasi va mohiyati, printsiplari va funktsiyalari.

«**Huquq**» iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, «xaq», «xaqiqat» so'zlaridan olingan.

Huquqning paydo bo'lishida asosan 3 ta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich - huquqning paydo bo'lish bosqichi. U asosan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot shakllari vujudga kelayotgan jamiyatga xosdir.

Ikkinchi bosqich – ushbu tartibga solish tizimi qoidalarining shakllanishi davri. Bu bosqich ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning turli shakllari to'liq o'rnatilgan jamiyatlarda mavjud edi.

Uchinchi bosqich – bir qator ilk davlatlarda huquqning yozma tarzda muayyan tizimga solinishi, ya'ni kodifikatsiyalashishidir.

Hozirgi kunda huquq quyidagi ma'nolarda ko'llaniladi:

Birinchidan, muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi.

Ikkinchidan, huquq hamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan, muhofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir.

Uchinchidan, huquq ijtimoiy fan sohalaridan birining nomi bo'lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Aflotun va Arastu fanga siyosiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy hamda shartli huquqlarga ajratgan.

Siyosiy huquq - tabiiy huquq va shartli huquq qismlaridan iborat:

Tabiiy huquq tan olish yoki tan olmaslikdan qat'i nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir.

Shartli huquq - insonlar tomonidan ularning xohish-irodasiga ko'ra o'rnatiladigan qoidalar majmuidir.

Qadimgi Rim mutafakkirlari huquqni yaxshilik, halol yashash, har kimga o'ziga munosibini berish, o'zgalarga zarar etkazmaslik, ezgulik va adolat san'atidir, deb ta'riflaydi.

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr al-Farobiy huquqni fozil odamlarning xaqiqiy baxtga erishish vositasi deb tuShungan. Huquq uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. huquq – extirolarni jilovlash vositasidir. Huquq — insonni asrash, avaylash qurolidir.

Huquq haqida yuridik adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan:

Huquqni zamon talablari asosida tug'ri tuShunish amaliy faoliyat uchun g'oyat muhim va zarurdir. Shu bois huquqqa davlat arboblari ham katta e'tibor berib, uni tuShunishga o'z munosabatlarini ifodalaydilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov huquqqa Shunday ta'rif bergan: «huquq ijtimoiy hamjihatlik va keliShuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi»⁵dir

Huquq-ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi norma.

Huquq paydo bo'lishining asosiy belgilarini A.Saidov bilan U.Tojixanov «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida quyidagicha ko'rsatgan:

Huquqiy adabiyotlarda uning boshqa belgilari ham ko'rsatilgan. Masalan: X.B.Boboev, X.T.Odilqorievlar «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida huquq tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatishgan:

1. huquqning barcha uchun majburiyligi;
2. huquqning qonun va boshqa aniq shakllarda ifodalangan bo'lishi;
3. huquqning davlat tomonidan o'rnatilishi, muhofaza qilinishi;

⁵ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T.. «O'zbekiston», 26-bet.

4. huquqning ijtimoiy tartib-intizom, erkinlik, adolatparvarlik, tenglikni ta'minlash vositasi ekanligi;

5. huquqning sub'ektiv va ob'ektiv huquqlarga bo'linishi va sub'ektiv huquqlar orqali harakat qilishi;

6. huquq extiroslarni jilovlash vositasi ekanligi.⁶

Mazkur belgilarning majmui huquq haqida to'laroq tuShunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Huquqning mohiyatiga kelsak, huquqning insoniyat uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun huquqning mohiyatini aniqlash uchun uning kimga xizmat qilishini, kimning irodasini ifodalashini aniqlash zarur.

Maxsus-yuridik printsiplar aslida huquqiy tilda ifodalangan ijtimoiy printsiplardir. Odatda, ilmiy adabiyotlarda maxsus yuridik printsiplar toifasiga quyidagilar kiritiladi;

1. Huquq normalarining butun mamlakat aholisi uchun umumiy-majburiyligi hamda ularning boshqa ijtimoiy normalardan ustuvorligi;

2. Amaldagi ob'ektiv huquqni tashkil etuvchi normalarning ziddiyatsizligi va qonunning boshqa normativ-huquqiy me'yorlardan ustunligi;

3. Huquqning ommaviy va hususiy huquqqa, nisbatan mustaqil huquq sohalari hamda institutlariga bo'linishi;

4. Ob'ektiv va sub'ektiv huquq o'rtasida, huquq normasi va huquqiy munosabat o'rtasida, huquq bilan huquqning qo'llanilishi o'rtasida mutanosiblik nisbatining mavjudligi printsiipi;

5. Ijtimoiy erkinlik, qonun va sud oldida tenglik, teng huquqlilik printsiipi;

6. Qonunda mustahkamlangan huquq va erkinliklarining yuridik kafolatlanganligi;

7. Teng yuridik mezonlarda ifodalangan hulq-atvorning adolatlilik hamda yuridik javobgarlikning sodir etilgan huquq bo'zilishiga mutanosibligi;

8. Yuridik javobgarlikning faqat aybli huquqqaxilof xatti-harakat (yoki harakatsizlik) uchungina qo'llanilishi va ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda ko'rilib, uning aybi isbotlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi; aybsizlik prizumptsiyasi printsiipi;

9. Yangi yoki nisbatan og'irroq yuridik javobgarlikni o'rnatayotgan qonunning orqaga qaytish kuchiga ega emasligi printsiipi; Jazolash tizimini insonparvarlashtirish.

Huquq funksiyalari - ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.

Regulyativ (tartibga soluvchi) - huquqning ijtimoiy munosabatlarga, ular mavjud holatini, erishilgan jarajasini mustahkamlashga, barqarorlashtirishga qaratilgan ta'sir etishi tuShuniladi.

Negativ(qo'riqllovchi) - uning ijtimoiy vazifasi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning dahlsizligini ta'minlashga

⁶ X.B.Boboev, X.T.Odilkoriev. «Davlat va huquq nazariyasi» TDIOI.2000y 203-bet.

yo'naltiriladi va Shu bilan birga, jamiyatga, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi.

Huquq quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

Birinchidan, huquq normal tashkiliy-mehnatni, jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatini, normal iqtisodiy axborot ishlab chiqarishni, maxsulot iste'moli va ayrboshlashni tartibga solish funktsiyasini bajaradi.

Ikkinchidan, huquq davlat to'zimini, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, iqtisodiy hayotning tashkil etilishini, ma'lum sotsial guruhlarning xukmronligini, mafko'ra asoslarini, dehqon jamoalarining, jamiyatning boshqa a'zolarining hayoti, erkinligi, mulkini qo'riqlash funktsiyasini bajaradi.

Uchinchidan, huquq jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni va boshqa ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadi. Bu uning gumanistik funktsiyasidir.

To'rtinchidan, huquq bir qator zaruriy printsiplarni va yurish-turish qoidalarini, ruhiy va ahloq qoidalarini ijtimoiy ongga singdiradi. Bu uning mafko'raviy funktsiyasidir.

Beshinchidan, huquq yosh avlodni, jamiyatning hayotiy maqsadlarini, ijtimoiy hayot ideallarini, ahloqiy va huquqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga tayyorlaydi. Bu uning tarbiyaviy funktsiyasidir.

4.Huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik

Huquqiy munosabat - o'zaro sub'ektiv huquq va majburiyatlar bilan bog'liq shaxslar (ya'ni huquq sohibalari) o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir.

Huquqiy munosabat ta'rifidagi asosiy narsa, avvalo, bu tomonlar o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettirishdir.

Bunday munosabatlarda kamida ikki tomon-huquq sohiblari ishtirok etib, o'zaro muloqatga kirishadilar.

Huquqbuzarlik tarkibi:

1.**Ob'ekti**-deb huquq bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi.

2.**Ob'ektiv tomoni**-bo'lib shaxsning harakat yoki harakatsizligi oqibatida huquqning bo'zilishi hamda uning ijtimoiy xavfliligi hisoblanadi.

3.**Sub'ekti**-bo'lib, huquqbuzarlikni sodir qilgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

4.**Sub'ektiv tomoni**-shaxsning huquqqa qarshi qaratilgan harakati yoki harakatsizligiga va ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan psixik-ongli ko'rinishdagi munosabatidir.

Yuridik javobgarlik – huquqbuzarlik sub'ektiining huquq normalarida nazarda tutilgan noqulay oqibatlariga badosh berish majburiyati, ijtimoiy javobgarlikning turi.

Yuridik javobgarlik-huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko'zda tutilgan sanktsiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo'llash bo'lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan mahrum etiladi.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari bilan harakterlanadi;

- 1.yuridik javobgarlik davlat majburlov choralari bilan bog'liq;
- 2.yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan bog'liq;
- 3.yuridik javobgarlik huquqbo'zar uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi;
- 4.huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan choralarning harakteri va hajmi huquq normalarining saektsiyasida o'rnatilgan bo'ladi;

5.davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov choralari huquqni qo'llash faoliyati davomida tegishli vakolatdli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va protsessual shakllarga amal qilgan holda olib boriladi.

Yuridik javobgarlik printsiplariga quyidagilar kiradi;

- 1.fikr uchun emas, balki faqat g'ayriqonuniy harakat uchun javobgarlik;
- 2.huquqbo'zarning harakatlarida ayb bo'lgan taqdirdagina javobgar bo'lishi;
- 3.qonuniylik.;
- 4.adolatlilik;
- 5.maqsadga muvofiqlik;
- 6.jazoning muqarrarligi;

Yuridik javobgarlik turlari:

1. Jinoiy-huquqiy javobgarlik- fuqarolar tomonidan ijtimoiy va davlat tuzumiga, mulk shakllari, xo'jalik tizimi, shaxslar, fuqarolarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga va hokazolarga qarshi tajavo'z qilinganidan kelib chiqadi.

2. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik – fuqarolarning, shaxslarning mulkiy munosabatlari va bu munosabatlar bilan bog'liq mulkiy harakterga ega bo'lmagan shaxsiy munosabatlarga zarar etqazganlik holatlarida belgilanadi.

3. Ma'muriy-huquqiy javobgarlik – huquqiy munosabatlarning bo'zilishi bilan bog'liq bo'lib, ularga boshqaruvning o'rnatilgan umumtartib qoidalarini bajarmaslik, masalan, yo'l harakati qoidalariga va jamoat tartibi qoidalariga, tabiatni muhofaza etish qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar kiradi.

4. Intizomiy-huquqiy javobgarlik – mehnat va xizmat intizomini, harbiy va boshqa intizomni bo'zish bilan bog'liq bo'lib, ularga idoralarning ichki tartib-qoidalarini bo'zish, ishga kech kelish yoki ishdan vaqtli ketib qolish kabilar kiradi.

Jinoiy va fuqaroviy – huquqiy javobgarlik sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'muriy va intizomiy huquqiy javobgarlik ichki ishlar organlari va tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlik belgilashdan maqsad jazolash emas, balki g'uquq umumiy maqsadlarining muayyan ifodasiga qaratilgan bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi, tartibga solinishi va himoyasida o'z ifodasini topadi.

Huquqiy davlat – huquqning xukmronligi va qonunning ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi, inson xuquqlari va erkinliklari ta'minlanadigan, xuquqni muhofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo'lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-xuquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir. Xuquqiy davlatning quyidagi bir qator asosiy belgilari mavjud:

1. Xuquqning xukumronligi;
2. Konstitutsiya va qonun ustunligi.
3. Inson xuquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.
4. Davlat va fuqarolarning o'zaro ma'suliyati.
5. Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi.
6. Sudning mustaqilligi.
7. Xuquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi.
8. Xuquqiy madaniyatning yuksak darajasi.
9. Demokratiyaning rivojlanishi va takomilla Shuvi.

Jamiyatda xuquqiy davlatning roli quyidagilarda ifodalanadi:

1. Jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi va barqarorligini rag'batlantira oladigan xuquqiy hujjat chiqarish va joriy etish.
2. Fuqarolarning xuquq va erkinlarini muhofaza qilish, ularning ijtimoiy himoyalanganligiga doir amaliy choralar qabul qilish.
3. Fuqarolarning xuquq va erkinliklariga tajavuz qiluvchi mansabdor shaxslarni tegishli shaklda xuquqiy javobgarlikka tortishning xuquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Jamiyat hayotida xuquqiy davlat quyidagilarni ta'minlaydi:

- davlat mexanizmining barcha bug'inlari aniq va bir maromda ishlashini;
- xuquqiy davlat organlari faoliyatida xuquqiy ijodkorlik va xuquqni qo'llashning samaradorligi;
- hokimiyat vakolatlarini taqsimlash printsiplarini turmushga joriy etishni;
- davlat – xuquqiy va siyosiy institutlarni barqarorligini;
- erkin bozor iqtisodiyotini.

Xuquqiy davlat barqarorligining xuquqiy asosi – jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning xuquq va erkinliklarining himoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va xuquqiy tartibotning mustahkamligidir.

Xuquqiy davlat barqarorligining siyosiy asosi – siyosiy plyuralizmga asoslangan demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va barqaror faoliyat ko'rsatishidir.

Xuquqiy davlat barqarorligining ijtimoiy asosi – aholining davlat tomonidan teng himoyalalanishida ko'rinadi.

Xuquqiy davlat barqarorligining iqtisodiy asosi – erkin tadbirkorlikka va xilma-xil mulk shakllarini rivojlantirishga qaratilgan bozor munosabatlarining mavjudligidir.

Insonparvar xuquqiy davlatning belgilari:

1. Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi.
2. Davlat hokimiyati tizimining taqsimlanish printsiipi.
3. Insonning xuquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoyalaniishi.

4. Oliy qadriyat sifatida inson xuquq va erkinliklarini joriy etish shart-sharoitlarning yaratilishi.

5. Demokratlilik.

6. Siyosiy va xuquqiy madaniyat darajasini yuksalishi.

7. Adolatli fuqarolik jamiyatini yaratilishi.

8. Sud – xuquqiy islohatlarining o'tkazilishi.

9. Sudning mustaqilligi.

10. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash va xuquqiy davlat tizimini yaratish maqsadida qonunlarni chiqarish va takomillashtirish.

Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda xuquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashidir.

GLOSSARIY.

Respublika - (lot. - umumiy ish) - davlatni idora qilish (boshqarish) shakli bo'lib, unda davlatni saylab qo'yilgan kishilar boshqaradi.

Unitar - (lot. Uniya - birlik) - yagona. Davlatning tuzilish shakli bo'lib, muayyan ma'muriy xududiy bo'linishga ega bo'ladi. Birok bu mustaqil xududlar (tumanlar, viloyatlar, kontonlar) davlat suverenitetiga ega bo'lmaydi.

Federatciya - (lot. Ittifoq, birlashma) - davlatning tuzilish shakli bo'lib, uning asosi - ikki yoki bir necha mustaqil davlatning bitta ittifoq davlatga birlashishdir.

Konfederasiya - (lot. - uyushma) - shartnoma asosida qat'iy muayyan maqsadlar yo'lida birlashadi.

Suverenitet - frans., bir davlatning ikkinchi davlatga (vasallik)ga nisbatan ustuvorlik huquqi.

Anarxiya - Hokimiyatsizlik.

Despotizm - zolimlik, zulmkorlik.

Nazariya-jamiyat taaqqiyoti qonuniyatlarini mujassamlashtirgan amaliyotning mantiqan ilmiy umumlashtirilishidir.

Jamiyat- kishilarning murakkab ijtimoiy birlashmasidir.

Avtoritar davlat - ushbu davlatda g'ayridemokratik, avtoritar rejim hukmronlik qiladi.

XULOSA.

Ma'lumki, iqtisodiyot davlat va huquqqa nisbatan birlamchi kuch, davlat esa ikkilamchi kuch bo'lib maydonga chiqadi. Davlat iqtisodiyotning hosilasi, lekin paydo bo'lgandan keyin u ma'lum nisbiy mustaqillikka ega bo'ldi. Jamiyat hayotida va uning iqtisodiy taraqqiyotida aktiv rol o'ynaydi. Davlat iqtisodiyotga nisbatan ijobiy va salbiy rol o'ynashi mumkin. Agar davlat o'z umrida o'tayotgan ishlab chiqarish munosabatlarini himoya qilsa, o'z taraqqiyotiga to'sik bo'ladi. Agar davlat yangi ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirishga yordam bersa, yangi, yanada progressiv jamiyatning iqtisodiy negizini barpo etishga intilsa, ijobiy ilg'or kuch bo'lib maydonga chiqadi.

Bundan tashqari, har bir inson o'z huquqini mukammal bilsagina o'zining har qanday turdagi huquq va erkinligi bo'zilishiga yo'l qo'ymaydi.

Buning uchun esa har bir shaxs O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qilinayotgan barcha qonunlarni va huquqiy me'yoriy hujjatlarni o'rganib borishi lozim bo'ladi.

Talaba-yoshlarimizga o'z huquq va erkinliklarini bilishi va himoya qilinish yo'llarini bilib olishlari uchun "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami" jurnallarining barcha sonlarini, Shuningdek, «Davlat va xuquq to'g'risida»gi nazariy bilimlarini oshirishlari uchun ularga A.Saidov, U. Tadjixanov, Z.Islamov, X.Odilkoriev, X.Boboiev va bir qancha xuquqshunos nazariyachilar tomonidan yozilgan darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni o'rganishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston 2014.
2. Karimov I.A. "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li" T., 2004
- 3.Karimov I.A. "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari". T., "O'zbekiston", 26-b.
- 4.Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir" "Xalq so'zi" 2010 yil 28 yanvar soni.
4. A.Saidov, U.Tojixonov. X. Odilkoriev. "Davlat va huquq asoslari". Darslik. – T., SHark, 2002. 168-b; 203-b.
5. A.Saidov, U.Tadjixanov. "Davlat va huquq nazariyasi" T. Adolat. 2001. 97-100-b;154-b; 255-b;
- 6.S.M.Qosimbekova «HuquqShunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T. TDIU. 2006.25-49-b.
7. www.gov.uz
8. www.edu.uz
9. www.zivo.tdu.uz
10. www.ec.tdu.uz